

О`ЗБЕК ВА ТУРК ТИЛЛАРИДА СОМАТИК ФРАЗЕОЛОГИЗМЛАР

Kattabekova Fazilat Ulug`bek qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

O`zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada o`zbek va turk tillarida somatik frazeologizmlarni leksik-semantik va grammatik qurilish jihatdan qiyosiy tadqiq etish. O`zbek va turk tillarida somatik frazeologizmlarning miqdori va ularning tarkibida faol qatnashgan somalarni aniqlash.

Kalit so`zlar: Somatik frazeologizm, leksik-semantik, grammatik qurilish, Sh.Rahmatullayev va uning "Hozirgi o`zbek adabiy tili" kitobi, grammatik kategoriya

Jahondagi ko`pchilik tillar frazeologiyasining asosiy qismini somatik frazeologizmlar tashkil etadi. Somatik frazeologizmlar tarkibida somatizmlar, ya`ni tana a`zolari nomlarini bildiruvchi so`zlar qatnashgan birliklardir. Har bir til frazeologiyasida somatik iboralar eng qadimgi frazeologik qatlam hisoblanadi.

Jahon tilshunosligida somatik frazeologizmlar doirasida qator ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Somatik frazeologizmlarning ilk tadqiqotchilaridan biri F.Vakk sanaladi. U somatik frazeologizmlarni uch guruhga ajratadi: a) faqat odamlarni tasvirlaydigan, b) odamlar va hayvonlarni tasvirlaydigan, c) faqat hayvonlarni tasvirlaydigan iboralar¹. Keyingi yillarda somatik frazeologizmlar qiyosiy planda turli tizimdagi tillar doirasida o`rganildi. Bu o`rinda Yu.Dolgoplov (rus, ingliz va nemis tillarida somatik frazeologizmlar), O.Nazarov (rus va turkman tillarida somatik frazeologizmlar), M.Abilgalieva (qozok va nemis tillarida somatik frazeologizmlar), U.Bibileyshvili (guzin va fransuz tillarida somatik frazeologizmlar), D.Saypullayeva (turkman va ingliz tillarida somatik frazeologizmlar) kabi olimlarning ilmiy ishlarida muhim yutuqdar qo`lga kiritildi. Turkiy tillardagi somatik frazeologizmlarning semantikasi D.Bazarova tomonidan tadqiq etildi. Olima somatik frazeologizmlarning nafaqat leksik, balki grammatik kategoriyalarni shakllantirishdagi ahamiyatini ham ko`rsatib berdi².

Xususan, o`zbek tilida somatik frazeologizmlar A.Isayevning "O`zbek tilining somatik frazeologizmlari" nomli nomzodlik ishida tadqiq qilindi. Mazkur ilmiy ishda o`zbek adabiy tilidagi *bosh* va *ko`z* so`zi bilan frazemalar ustida batafsil to`xtalib, ularni turkmancha va ozarbayjoncha variantlari bilan qiyoslab o`rganilgan. Olim

¹ Вакк.Ф.О. Соматической фразеология в современном эстонском литературном языке: Автореф. дисс. ...канд. Филол.наук. Таллин, 1964, -6-с

² Базарова Д. Семантика наименований частей тела и производных от них в тюркских языках: Дисс. ...д-ра. Филол.наук. -М., 1967. -23-с

somatik frazeologizmlar doirasini cheklab, unga hayvon tana a'zolarining nomlarini kiritishga qarshi chiqadi. Shu bilan birga *jon*, *ko`ngil* singari so`zlarni somatik leksikaga kiritishga asos yo`q deydi.

Bizningcha, somatik frazeologizmlar keng tushunilishi kerak. Agar hayvon tana a'zolarining nomlari kishilarning xatti-xarakterlarini ifodalaydigan iboralarni tashkil toptirsa, u holda bunday iboralarni ham somatic frazeologizmlar tarkibiga kiritilishi lozim. Masalan, *dumini tugmoq*, *dumini tutqizmaslik*, *dumi xurjunda*, *tuyog`ini shiqillatmoq*, *shoxi sindi* kabi frazemalar shular jumlasidandir. Shu bilan birga yurak so`zining sinonimlari bo`lgan *ko`ngil*, *dil*, *qalb* so`zlari iboralarni tashkil toptirishda faol ishtirok etadi. Tarkibida mazkur so`zlar kelgan iboralar ham somatic frazeologizmlar deb hisoblash kerak. Biz somatik frazeologiyani alohida soha sifatida ajratish³ fikriga ham qo`shila olmaymiz. Tarkibida somatizmlar ishtirok etgan frazeologizmlar deyish maqsadga muvofiq bo`ladi.

Mazkur ishda o`zbek va turk tillari tarkibida, asosan, *bosh/bas*, *Ko`z/goz*, *qo`l/e1*, *oyoq/ayak* so`zlari ishtirok etgan somatik frazeologizmlar leksik-semantik va grammatik qurilish jihatdan qiyosiy o`rganishga harakat qilindi. Tadqiqotning birinchi bobi "O`zbek va turk tillarida birikmaga teng somatik iboralar" deb nomlangan bo`lib, unda o`zbek va turk tillarining tarkibida *bosh/bas*, *Ko`z/goz*, *qo`l/e1*, *oyoq/ayak* somalari ishtirok etgan birikmaga teng iboralari, ularning miqdori, semantik va grammatik qurshovi, o`xshash va farqli xususiyatlari kabi masalalar yoritiladi.

³ Назарян А. Французско-русский учебный словарь лингвистической терминологии. -М.: Высшая школа, 1989, - 266с